

MESOPOTAMIYANING QADIMIY TARIXIY MANBALARI

SHDPI TARIX KAFEDRASI O'QITUVCHISI **Bobojonov Behruz**

SHDPI 2-KURS TALABASI **Otamurodov Doniyorbek**

SHDPI 1-KURS TALABASI **Maxmirzayeva Gulsevar**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qadimgi Mesopotamiya tarixi bo'yicha asosiy manbalar, moddiy madaniyatlar yodgorliklari, yozma hujjatlar va diniy mifologik abadiy asarlar, antik mualliflar asarlari haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: zikkurat, Yangi Bobil podsholigi, mixxat, Shumer, Akkad, Bobil minorasi, Xamurappi qonunlari.

Аннотация. В статье представлены сведения об основных источниках по истории Древнего Месопотамии, памятниках материальных культур, письменных документах и религиозно-мифологических вневременных произведениях, произведениях античных авторов.

Ключевые слова: зиккурат, Нововавилонское царство, клинопись, Шумер, Аккад, Вавилонская башня, законы Хаммурапи.

Annotation. This article provides information on the main sources of the history of Ancient Mesopotamia, monuments of material cultures, written documents and religious mythological timeless works, works of ancient authors.

Key words: ziggurat, New Babylonian kingdom, cuneiform, Sumer, Akkad, Tower of Babel, laws of Hammurabi.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 24-may kuni "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2995-sonli qarorni imzoladi. Qarorga keltirilgan sharhda tushuntirilishicha, hujjat yosh avlodni vatanparvarlik va tarixga chuqur hurmat ruhida tarbiyalash hamda O'zbekistonning jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan mamlakat sifatidagi xalqaro obro'-e'tiborini yanada mustahkamlash, boy yozma merosni saqlash, o'rganish va keng targ'ib qilish ishlarini yangi sifat bosqichiga ko'tarishga yo'naltirilgan.¹ Janubiy Osiyoning qulay tabiiy geografik muhiti u yerda ibtidoiy jamoat tuzumining hamma bosqichlarida odamlar yashashi uchun imkon bergan. Keyingi 100 yil mobaynida olib borilgan arxeologik va antropologik tadqiqotlar natijasida hududdan juda ko'p ibtidoiy odamlar yashagan, ilk. o'rta, so'nggi tosh asri, shuningdek mezolit. neolit, eneolit va jez davriga mansub yodgorliklar majmuasi topib o'rganildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozish davomida ilmiy, adabiyotlar tahlili, qiyoslash, analiz, umumlashtirish, tarixiylik metodlaridan foydalanildi. **Tahlil va natijalar.** Qadimgi Mesopotamiya tarixi bo'yicha asosiy manbalarga - moddiy madaniyatlar yodgorliklari, yozma hujjatlar va diniy mifologik abadiy asarlar, antik mualliflar asarlari kiradi. Millodan avvalgi III-I ming yilliklarga oid moddiy madaniyat yoqgorliklari Mesopotamiyaning qadimgi Eredu, Uruk, Lagash, Larsa, Nippur, Eshnunna, Mari, Ashshur, Nineviya va Bobil kabi shaharlarining xarobalarini arxeologik o'rganish natijasida ma'lum bo'lgan. Shaharlardan zinapoyasimon zikkurat-joylar, xo'jalik inshootlari, san'at asarlari va uy anjomlari topilgan.

¹ Taraqqiyot yo'limizning shiddati oshaveradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasidan. // Xalq so'zi gazetasi. 2018 yil 28 dekabr.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

DEKABR

ANDIJON, 2024

Bizgacha Lagash hokimi Eannutumning (millodan avvalgi XXV asr) “Kalxatlar lavxasi” nomi bilan aytiladigon relyef tasvirlari bilan Lagashning Apis va Tir shaharlarining ustidan g’alabasi sharafiga yaratgan. Mesopotamiyaning millodan avvalgi III-II ming yilliklarga oid silindirsimon stealit, lazurite, serdolikdan yasalgan muhrlari Misr, Bahrayn va Hindistondan ko’plab topilgan.

Mesopotamiya tarixiga oid eng qadimgi hujjatlar (millodan avvalgi III ming yillik boshlari) Uruk va Jamdat-Nasrdan topilgan mingga yaqin loy taxtachadir. Ular piktografik belgilar bilan yozilib, hali oxrigacha o’qilmagan. Lagashdan millodan avvalgi III ming yillikka oid xo’jalik hujjatlari topilgan. Ayniqsa, millodan avvalgi II ming yillikka oid ko’pgina xo’jalik hujjatlari mavjud. Ular davlat arxivlari, ibodatxona va xususiy arxivlarda saqlanib qolgan².

Hozirgi Turkiya hududidagi Kultepadan millodan avvalgi II ming yillikka oid ossur va amoriy savdogariga tegishli qarz, tilxat va sud qarorlari aks etgan 10.000 loy taxtachadan iborat arxiv; millodan avvalgi II ming yillikka oid qadimgi Arrapxadan topilgan 4000 loy taxtacha; millodan avvalgi XII-XI asrlar oid Ashshur shahri arxivi; millodan avvalgi I ming yillikka oid Nippur, Bobil, Borsippa, Ur va Uruk shaharlari kesishgan joylardan topilgan arxivlar qadimgi Mesopotamiyaning xo’jalik hayoti to’g’risidagi muhim ma’lumot beradi. Ayniqsa Nippur shaxridagi savdo-tadbirkorlik bilan shug’ullangan “Murashu uyi”dan topilgan millodan avvalgi V asrga oid 700 hujjat diqqatga sazovirdir.

Bizgacha Mesopotamiya tarixiga tegishli ko’plab huquqiy hujjatlar yetib kelgan. Ulardan eng qadimgi podsha Shylga qonunlari (millodan avvalgi III ming yillikning oxiri); millodan avvalgi XX asrga oid Eshnunna qonunlari, undan kirish va 59 modda saqlanib qolgan; millodan avvalgi II ming yillik boshlariga tegishli Lars va Issin qonunlari parchalari; Lipit-Ishtar nomli humdor qonunlarining kirish, xulosaning bir qismi va 40 ga yaqin qonun moddasi bizgacha yetib kelgan. Eng katta qonunlar to’plami 247 modda, asosiy qism va xulosadan iborat Xamurappi qonunlaridir. Millodan avvalgi II ming yillik o’rtalariga oid O’rta Ossuriya qonunlari, Yangi Bobil podsholigi oid 20 ga yaqin qonun moddasi bizgacha yetib kelgan³.

Mesopotamiya to’g’risida eng batafsil ma’lumotlarni Mesopotamiyaga sayohat qilgan yunon tarixchisi Geradot beradi (millodan avvalgi V asr). Ko’p yillar Eronda yashagan Geradotning kichik zamondoshi Knidlik Ktesiy (Ahmoniylar saroyida tabib bo’lib xizmat qilib) 23 kitobdan iborat “Eron tarixi” asarida Mesopotamiyaga ancha katta o’rin ajratgan. Ammo Ktesiy tarixini bayon qilishda afsonaviy an’analarga asoslangan. Ktesiy tarixini soxtalashtirish, xatolarning koplighi uchraydi. Millodan avvalgi IV asrda Fors shahzodasi Kirning armiyasida yonlanma askar bo’lib Mesopotamiyaga kelgan yunon tarixchisi Ksenofontning “Kiropediya” va “Anabasis” asarlarida Dajla va Frot daryo vodiylari tasfiri, mamlakat xalqlari va urf-odatlari to’g’risida ma’lumotlar bergan. Strabonning “Geografiya” asarining (millodan avvalgi I asr-millodiy I asr) maxsus 16 kitobi Mesopotamiyaga bag’ishlanib, hudud to’g’risida boy ma’lumotlar beradi. Mesopotamiya tarixi bo’yicha bir qancha ma’lumotlar yahudiy yozuvchisi Iofiy Flaviy va Rim muallifi Pompey Trog asarlarida uchraydi. XVIII asrda Mesopotamiya va Eronga birinchi ilmiy sayohat qilgan yevropalik odam daniyalik olim Konstantin Nibur edi. U Yevropaga qadimgi Eron poytaxti Persopol saroyidan mixxat yozuvlarni olib keldi⁴.

1802-yilda qadimgi yunon va lotin grammatikasi o’qituvchisi, nemis

² Omonov, A. O. O., & Haydarov, S. A. (2021). Tarix fanini o'rganishda frigiya podsholigining o'rni va ahamiyati. Scientific progress, 1(5).

³ История древнего востока. Под.ред. Кузищина В.И. М.,1979. 86 с

⁴ Бартольд В.В. Восточно –иранский вопрос. М-1922, 75 с

olimi Grotofrnd mixxat yozuvining 39 ta belgisidan 10 tasini o'qidi. XIX asrning 30-40-yillarda Yaqin Sharqda uzoq yillar ishlagan ingliz harbiysi va diploma G.Roulingson mixxatlarning o'qilishida katta hissa qo'shgan. U Eronnig Hamadon (Midiyaning qadimgi poytaxti Ekbatana) shahri yaqinidan yaqinidan Behistun qoyasida Doro I ning uch yozuvini tekshiradi. 1847-yilda Roulingson Behustun yozuvining Bobil qismidagi 600 belgidan 250 tasini o'qigan. 1855-yilda Behustun yozuvining uchinchi qismi bo'lgan elam tilidagi mixxatlar ham olimlar tomonidan o'qilgan. XIX asrning 90-yillarida nemis olimi F.delich akkad tilining grmmatikasi va lug'ati yaratdi. Olimlar J.Oppenxeym, E.xinks va boshqalar Mesopotamiyaning Akkad mixxatlarini o'qishga o'z hissalarini qo'shganlar. Shumer mixxat yozuvini o'qish XIX asrning I yarmida F.Tyurgo-Danjan, O.Pepel, A.Daymel va A.Falkenshteynlar tomonidan ammalga oshiriladi.

Qadimgi Mesopotamiyadagi birinchi arxeologik qazilmalar XIX asr o'rtalarida uning shimoliy qismi Ossuriya joylashgan joyda amalga oshirildi. 1842-yil Mossuri shahridagi fransuz konsuli P.Botta Kunjik tepaligini qazishni boshlaydi. 1802-yilda qadimgi yunon va lotin grammatikasi o'qituvchisi, nemis olimi Grotofrnd mixxat yozuvining 39 ta belgisidan 10 tasini o'qidi. XIX asrning 30-40-yillarda Yaqin Sharqda uzoq yillar ishlagan ingliz harbiysi va diploma G.Roulingson mixxatlarning o'qilishida katta hissa qo'shgan. U Eronnig Hamadon (Midiyaning qadimgi poytaxti Ekbatana) shahri yaqinidan yaqinidan Behistun qoyasida Doro I ning uch yozuvini tekshiradi. 1847-yilda Roulingson Behustun yozuvining Bobil qismidagi 600 belgidan 250 tasini o'qigan. 1855-yilda Behustun yozuvining uchinchi qismi bo'lgan elam tilidagi mixxatlar ham olimlar tomonidan o'qilgan. XIX asrning 90-yillarida nemis olimi F.delich akkad tilining grmmatikasi va lug'ati yaratdi. Olimlar J.Oppenxeym, E.xinks va boshqalar Mesopotamiyaning Akkad mixxatlarini o'qishga o'z hissalarini qo'shganlar. Shumer mixxat yozuvini o'qish XIX asrning I yarmida F.Tyurgo-Danjan, O.Pepel, A.Daymel va A.Falkenshteynlar tomonidan ammalga oshiriladi.

Qadimgi Mesopotamiyadagi birinchi arxeologik qazilmalar XIX asr o'rtalarida uning shimoliy qismi Ossuriya joylashgan joyda amalga oshirildi. 1842-yil Mossuri shahridagi fransuz konsuli P.Botta Kunjik tepaligini qazishni boshlaydi.

Qadimgi Mesopotamiya tarixiga doir manbalar uch asosiy guruhga bo'linadi:

- 1) qadimgi Sharq yozuvi yodgorliklari,
- 2) moddiy madaniyat yodgorliklari,
- 3) antik zamon avtorlarining ma'lumotlari.
- 4) Qadimgi Sharq hujjatlari tarixchi uchun hammadan ko'ra ko'proq ahamiyatga ega, chunki bu hujjatlarda tarixning ijtimoiy-iqtisodiy faktlari, siyosiy hodisalar qayd etilgan, ularda o'sha davrdagi madaniyatning tarakqiyot darajasi aks etgan. Mesopotamiya xalqlarining xo'jaligi, texnikasi va turmushi qay darajada taraqqiy qilganligini ko'rsatuvchi moddiy madaniyat yodgorliklari ham katta ahamiyatga ega. Antik zamon avtorlari qoldirgan ma'lumotlar bularga qaraganda kamroq ahamiyatga ega. Lekin ishonchli va to'la manbalarga ega bo'lgan hozirgi zamon tekshiruvchisi antik zamon avtorlarini e'tibordan chetda qoldirmasligi kerak. 1 Antik dunyo avtorlari qadimgi Sharq madaniyatining so'nggi asrlarida yashaganlar. Ular ko'p voqyealarni shaxsan ko'rganlar, ko'p narsalarnn o'sha vaqtlarda mavjud bo'lib, keyinchalik

yo'qolib ketgan manbalardan bilganlar⁵.

Xulosa. Qadimgi Sharq hujjatlari tarixchi uchun hammadan ko'ra ko'proq ahamiyatga ega, chunki bu hujjatlarda tarixning ijtimoiy-iqtisodiy faktlari, siyosiy hodisalar qayd etilgan, ularda o'sha davrdagi madaniyatning tarqiyot darajasi aks etgan. Mesopotamiya xalqlarining xo'jaligi, texnikasi va turmushi qay darajada taraqqiy qilganligini ko'rsatuvchi moddiy madaniyat yodgorliklari ham katta ahamiyatga ega. Antik zamon avtorlari qoldirgan ma'lumotlar bularga qaraganda kamroq ahamiyatga ega. Lekin ishonchli va to'la manbalarga ega bo'lgan hozirgi zamon tekshiruvchisi antik zamon avtorlarini e'tibordan chetda qoldirmasligi kerak. 1 Antik dunyo avtorlari qadimgi Sharq madaniyatining so'nggi asrlarida yashaganlar. Ular ko'p voqyealarni shaxsan ko'rganlar, ko'p narsalarni o'sha vaqtlarda mavjud bo'lib, keyinchalik yo'qolib ketgan manbalardan bilganlar. Qadimgi Sharq yozuvining asl yodgorliklari antik zamon avtorlari bergan ma'lumotlarning ko'pi to'g'ri ekanligini tasdiqladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Taraqqiyot yo'limizning shiddati oshaveradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasidan. // Xalq so'zi gazetasi. 2018 yil 28 dekabr.
2. Авдиев Е. Қадимги Шарқ тарихи. Т.1964 й.
3. В.И. Кузищина История Древнего Востока, Москва «Высшая Школа» 2002
4. Бартольд В.В. Восточно –иранский вопрос. М-1922.
5. Дяконов И.М Государственный строй древнейшего Шумера. –«Вестник древней истории» 1952 N 2.
6. Begaliyev, N., Xumoyun, A., & Shahlo, S. (2024). RTA OSIYO GIDROTEXNIKA INSHOOTLAR TARIXI SARDOBA VA KORIZLAR MISOLIDA. *UNIVERSAL JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES*, 2(9), 57-62.
7. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО–ҚАРШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 141-144.
8. Begaliyev, N. X. (2022). ETNOLOGIK TADQIQOTLARDA TERMINOLOGIYA MUAMMOSI. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(2), 69-72.
9. Otamurodov, D. (2024). IMOM BUXORIY - BUYUK MUHADDIS ALLOMA. *YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI*, 1(01).
10. Sobit, K. (2023). THE LAUNCH OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL EVENTS IN THE NEIGHBORHOODS OF SHAHRISABZ CITY. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 6(1), 398-401.
11. Sunnatovich, Q. I., & Sobit, K. (2023). VARGANZA QISHLOG'IDAN TOPILGAN YODGORLIKLAR TARIXI (I-XV ASRLAR). *JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING*, 2(9), 33-35.
12. Bobokulovna, Q. F. (2024). RESPUBLIKA "TADBIRKOR AYOL" UYUSHMASINING AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOLANTIRISHDAGI ROLI. *TADQIQOTLAR. UZ*, 35(1), 111-113.
13. Qanoatova, F. (2024). TURIZM RESURSLARINI SHAKLLANTIRISHDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINING AHAMIYATI. *YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI*, 1(01).
14. Tolibov, N. (2024). EKOTURIZM SOHASIDA TARIXIY JOYLAR VA OBIDALARNING AHAMIYATI. *YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI*, 1(01).
15. Nurillaevich O. B. et al. Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The

⁵ Дяконов И.М Государственный строй древнейшего Шумера. –«Вестник древней истории» 1952 N 2, 245 с

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

DEKABR

ANDIJON, 2024

Education And Training System //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – C. 984-989.

16. Aralovna O. G. et al. Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes //Journal of Survey in Fisheries Sciences. – 2023. – T. 10. – №. 1S. – C. 5000-5006.

17. Ayonovna A. S. The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization //Global Scientific Review. – 2023. – T. 13. – C. 7-10.

18. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o'g'li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ' //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.

19. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o'g'li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ' //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.

20. Otamurodov, D. (2024). IMOM BUXORIY - BUYUK MUHADDIS ALLOMA. *YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI*, 1(01).